



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ummataliyeva Mohlaroy Zokirjon qizi

Andijon Davlat Universtiteti Tabiiy Fanlar Fakulteti talabalasi

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TRANSPORTNING RIVOJLANISH TIZIMI VA UNING EKOLOGYAGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI

### Anotatsiya

Hozirgi kunda yurtimizning barcha sohalari rivojlanib bormoqda. Ular qatori mamlakatning transport tizimi ham avvalgiga qaraganda jadal su'ratda rivojlanib, bevosita qator xorijiy davlatlar bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetdi. Uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati juda yuqoridir. Eksport, import, xalqaro savdo aloqalari, iqtisodiy aloqalarni olib borishda uning ahamiyati beqiyos bo'lsada ammo uning atrof muhitga chiqarayotgan zararli moddalari, ekologiyani zararlanishiga olib kelmoqda va buning natijasida iqlim o'zgarishlariga olib kelib insonlarning salomatliklariga ham jiddiy ta'sir etmoqda. Ushbu maqolada transportning rivojlanish tizimi va ekologiyaga o'tkazayotgan ta'siri uning o'rganilishi va yechimlari haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Transport, O'zbekiston, temiryo'l, avtomobil transporti, ekologiya, Farg'ona vodiysi, eksport, import.

### Kirish.

Har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholining hayot darajasini ko'tarishda transportning o'rni va mohiyati beqiyosdir. Transport sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini, mamlakatning turli hududlari o'rtasidagi mahsulot almashinishi, uning tashqi savdosiniga ta'minlaydi. Yangi hududlarni o'zlashtirishdan oldin ularga transport yo'llari o'tkaziladi. Hozirgi zamon shaharlari hayotini transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transportning mudofaa ahamiyati ham juda kattadir. Transport moddiy ishlab chiqarishning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Uning rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotiga, unda ishlab chiqarish kuchlarining joylashish va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida 1991-yil 1-sentabrda tashkil topgan. Maydoni 448.9 ming km<sup>2</sup>. Ma'muriy jihatdan Qoraqalpogiston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shaxridan tashkil topgan. O'zbekiston dunyo hamjamiyati va siyosiy xaritasida o'ziga xos mavqeyga ega. Mamlakatimiz Markaziy Osiyoning deyarli qoq o'rtasida joylashgan. Dengizga bevosita to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu tufayli transport tizimida ham ko'pincha havo, quvur, avtomobil, temiryo'l transportidan tashqi savdo aloqalarini olib borishda, boshqa davlatlar bilan aloqarni rivojlanishda foydalaniladi. Transport sanoat bilan qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish aloqalarini turli xil xududlar o'rtasidagi mahsulot almashinishi ta'minlaydi. Yangi hududlarni o'zlashtirishda odatda transport turlari o'tkaziladi. Hozirgi paytda davlatni transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transportning mudofaa tizimida ham ahamiyati katta. Tarixdan yaxshi ma'lumki, Buyuk ipak yo'li o'tgan hududlarda savdo-sotiq, ilmu-fan, hunarmandchilik yuqori cho'qqilarga ko'tarilgan. Ushbu yo'l o'z ahamiyatini yo'qotgandan so'ng mintaqaning geosiyosiy mavqei ancha o'zgardi. Natijada, hozirgi O'zbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, dengiz portlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat bo'lib qoldi. Bugungi kunda respublikaning Qora dengiz, Boltiq va Yapon dengizlari, Shimoliy dengizlarga olib chiquvchi eng qisqa temir yo'l qariyb 3 ming km.ni tashkil etadi. Bu bir necha davlatlar hududidan o'tadigan olis yo'l bo'lib, O'zbekistonning iqtisodiy aloqalarini mushkullashtiradi, yuk tashishni qimmatlashtirib, mahsulotlarni raqobatga chidamsiz qilib qo'yadi. Bozor munosabatlari sharoitida transportni hududiy tashkil qilish va rivojlantirish hukumatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Asosiy qism.**

O'zbekistonda transportning bosqichma-bosqich rivojlanishi haqida quyida batafsil keltirib o'tilgan.

O'zbekistonda mavjud bo'lgan transport turlari orasida etakchi va muhim o'rinni temir yo'llar egallaydi. Mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarida, ayniqsa eksport va import munosabatlarida ushbu transport turining ahamiyati beqiyosdir. Temir yo'l transportining boshqa transport turlariga nisbatan yana bir afzalligi shundan iboratki, bi transport atrof-muhitga kam zarar etkazadi, uning yuk va yo'lovchilar tashish qobiliyati juda yuqori bo'lib, ob-havo injiqliklari bilan bog'liq emas va muntazam ravishda harakatda bo'ladi. Bu bilan u avtomobil va ayniqsa havo transportidan katta farq qiladi. Temir yo'l transporti, ayniqsa rayonlararo iqtisodiy aloqalarda muxim rol o'ynamoqda. O'zbekistonda temir yo'l qurilishi 1888-yildan boshlangan edi. Krasnovodsk-Chorjo'y temir yo'li davom ettirilib bekatidan Samarqandgacha olib borildi. 1890-yildan esa Toshkentdan Andijonga yetkazildi. 1905-yilda Orenburg va Toshkent oralig'ida temir yo'l ishga tushirildi. Respublika hukumati iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay shikastlangan temir yo'llarini tiklash va yangi yo'llar qurishga katta ahamiyat berildi. 1934-yilda Turkiston magistralining ishga tushirilishi respublika iqtisodiy taraqqiyotida kata ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillikdan avvalgi yillari Angren temir yo'li qurib ishga tushirildi. 1952-1956 yillarda Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'li qurilishi bilan quyi Amudaryo sobiq ittifoqda O'zbekistonning boshqa rayonlari bilan bog'landi. 1962-yilda Navoiy Uchquduk temir yo'li qurib ishga tushirildi. Sirdaryo-Jizzax, Samarqand-Qarshi bilan qisqa masofada bog'landi. 1972-yilda Qo'ng'iro't-Ustyurt orqali Denov temir yo'li o'tkazildi. Endilikda O'rta Osiyo Yevropaga ikki yo'nalishdagi temir yo'l orqali chiqadi.

Avtomobil transporti O'zbekistonda tez rivojlanmoqda. Bu transport asosan Respublika rayonlararo va xo'jaliklararo yuklarni tashishida muhim ro'l o'ynaydi. Keyingi yillarda Hamdo'stlik mamlakatlari va boshqa xalqaro xalq xo'jalik yuklarini tashishda uning ahamiyati oshib bormoqda. Avtomobillar transporti ayniqsa, 1926-yili respublikada muntazam avtobuslar yordamida yo'lovchilar tashish boshlangan edi (dastlabki shaharlararo avtobuslar qatnovi 1906-yilda Farg'ona Marg'ilon marshrutida yo'lga qo'yilgan edi). Ana shundan beri yo'lovchilar tashuvchi avtobuslar ham son, ham sifat jihatidan juda o'sib ketdi. temir yo'l bo'lmagan cho'l, adir va tog'li joylarda asosiy transport vositasidir. Bir qancha beton yo'llar – Toshkent–Olmaliq yo'li, Katta O'zbekiston trakti, Farg'ona xalqa yo'li, Zarafshon va Qoraqalpog'iston tarktlari va boshqa yo'llar qurildi. Hozir Respublikada 70 ga yaqin avtobus va taksimotor saroylari barpo etilgan, ular zamonaviy texnika bilan ta'minlangan.

Havo transporti. Respublika havo transporti-fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920-yillardan boshlangan. 1924-yil 20-mayda uzunligi 800 km bo'lgan Toshkent-Avliyoota (Jambul)-Pishpek (Bishkek)-Olmaota marshrutida dastlabki yo'lovchilar tashish reysi amalga oshirilgan edi. O'sha yilda shuningdek, uzunligi 450 km bo'lgan Kogon-Oqto'qay-Darg'onota-Xiva hamda Buxoro-Termiz-DO'shanbe havo yo'llari ochildi. 1924 yil havo transportida jami 1000 yo'lovchi, 200 kg pochta jo'natmalari, 5 tonna yuk tashildi. 1930 yildan Toshkent-Moskva yo'nalishida samolyotlar muntazam qatnay boshladi. Ayni paytda aeroportlar qurish ham boshlab yuborildi. CHunonchi, 1932 yil Toshkentda, 1939 yil Nukus va Urganchda, 1940 yil Termizda, 1941 yil Namanganda aeroportlar qurib ishga tushirildi.

Quvur transporti. Tarixga nazar tashlasak, O'zbekistonda birinchi neft quvuri 1908 yilda ishga tushganini ko'ramiz. O'sha yili CHimyon neft konidan Oltiariq neftni qayta ishlash zavodiga 20 kmlik quvur tortilgan edi. Keyinchalik mamlakatda yangi-yangi neft va gaz konlarining topilishi quvur transporti rivojlanishiga asos bo'la boshladi. Endilikda birgina Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga neft konlaridan jami 228,5 km. lik quvurlar o'tqazilgan. Suv transporti. 1950-yil Amudaryoning o'rta oqimida Surxondaryo viloyati hududida Termiz daryo porti tashkil etilgan. 1952 yilda esa Xo'jayli kema ta'mirlash zavodi qurilgan. Amudaryoning quyi qismida daryo sohillarida turli yillarda Sharlavuq, To'rtko'l, Beruniy, Qoratorov, Xo'jayli bandargoh (pristan)lari qurilgan.

Transport havo ifloslanishining asosiy manbalaridan biridir. Uning ekologyaning ta'siri quyidagilardan iborat. Turli transport ob'ektlarining atrof-muhitga ta'siri bilan bog'liq ekologik muammolar dvigatellar tomonidan zaharli moddalar chiqindilarining miqdori, shuningdek suv havzalarining ifloslanishi bilan belgilanadi. Qattiq chiqindilar va shovqinning ifloslanishi salbiy ta'sirga yordam beradi. Bundan tashqari, bu birinchi navbatda atrof-muhitni ifloslantiruvchi va energiya manbalaridan foydalanuvchi avtomobil transporti. Temir yo'l transporti vositalarining salbiy ta'siri magnitudani pasaytirish tartibidir. Havoning, dengiz va ichki suv transportining ifloslanishi kamayadi.

Har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholining hayot

darajasini ko'tarishda transportning o'rni va mohiyati beqiyosdir. Transport sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini, mamlakatning turli hududlari o'rtasidagi mahsulot almashinishi, uning tashqi savdosinini ta'minlaydi. Yangi hududlarni o'zlashtirishdan oldin ularga transport yo'llari o'tkaziladi. Hozirgi zamon shaharlari hayotini transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekistonda transport sohasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida yangidan- yangi aholi manzilgohlari, shaharlar, sanoat korxonalarini, transport tugunlari vujudga keladi,

hududlar qiyofasi o'zgaradi, tranzit avtomobil va temir yo'l transportidan iqtisodiyotga ma'lum darajada foyda keladi. Ta'kidlash kerakki, "rivojlangan mamlakatning yo'li yaxshi bo'lmaydi, aksincha, yo'li yaxshi mamlakat rivojlangan bo'ladi" bu iboraning zamirida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining belgilab beruvchi asoslardan biri transport tizimlari ekanligini tushinib olish qiyin emas.

Darhaqiqat respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar transport to'rini takomillashtirishga milliy havo, temir yo'l kompaniyalarini bozor sharoitida faoliyat ko'rsatish uchun huquqiy asoslarini yaratishga, xalqaro kommunikatsiya tizimiga muvofiqlashuvini ta'minlashga qaratilgan. Ayniqsa, respublikaning sharqiy qismida, "yopiq" holatda joylashgan Farg'ona iqtisodiy rayoni respublikaning boshqa mintaqalariga qaraganda transport-geografik

### **Muhokama.**

Avtomobil transportining atrof-muhitga ta'siri katta miqdordagi neft mahsulotlarini yoqish, mashinalar atrof-muhitga (birinchi navbatda atmosferaga) va inson salomatligiga zarar etkazadi. Havo kislorod bilan to'kiladi, chiqindi gazlarning zararli moddalari bilan to'yingan, atmosferada to'planib qolgan va turli substratlar yuzasida to'plangan chang miqdori ortadi. Avtomobil transporti kompleksi atrof-muhitni ifloslantiruvchi kuchli manba hisoblanadi. 35 million tonna zararli chiqindilarning 89 foizi avtomobil transporti va yo'l qurilishi korxonalarida chiqindilardir. Suv havzalarining ifloslanishida transportning ahamiyati katta. Bundan tashqari, transport shaharlardagi shovqinning asosiy manbalaridan biri bo'lib, atrof-muhitning termal ifloslanishiga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, yiliga 200 km<sup>3</sup> patogen mikroorganizmlarni o'z ichiga olgan oqava suvlar yo'lovchilar avtomashinalariga har bir kilometr yo'lga kiradi, shuningdek, 12 tonnagacha quruq axlat tashlanadi.

Ma'lumotlar bo'yicha avtomobil transporti atrof-muhitga zarar etkazish bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi, bu havo ifloslanishining asosiy manbai. U havoning ifloslanishining 90% dan ortig'ini, shovqin ta'sirining 50% dan ozgina, shuningdek iqlim ta'sirining 65-68% ni tashkil qiladi.

Harakatlanuvchi poezdlardagi shovqin va havoning ifloslanishi inson sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va umuman aholining hayot sifatiga ta'sir qiladi.

### **Natijalar.**

Atrof-muhitning yomonlashishiga qarshi kurashish uchun qimmatga tushmaydigan ekologik xavfsiz mezonlarni va ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish, eng muhimi, ekologik faoliyatda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash zarur.

Zero, global ekologik muammolarni jamoatchilik ishtirokisiz hal etishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Keng jamoatchilikni atrof-muhitni muhofaza qilishga jalb qilishning birinchi qadamlari quyidagilar bo'lishi kerak:

- axborot vakuumini bartaraf etish, aholini zarur ekologik axborot bilan ta'minlash. Bu yerda hukumat va aholi o'rtasidagi bo'g'in bo'lgan ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlarning faol pozitsiyasi muhim o'rin tutadi;
- atrof-muhitga u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatadigan barcha obyektlar va inshootlarni ekspert nazorati va jamoatchilik muhokamasi mexanizmini joriy etish;

- tabiatni muhofaza qilishga ajratilayotgan byudjet mablagʻlarining sarflanishi, shuningdek, xorijiy investitsiyalarning taqsimlanishi va sarflanishi ustidan jamoat nazorati mexanizmini joriy etish;
- ekologik axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash tizimlarini ishlab chiqish.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Ushbu holat yuzasidan yozilgan adabiyotlarni tahlil qilinganda shuni ko'rsatdiki, buni Fargʻona vodiysi misolida ko'rib chiqamiz. Fargʻona vodiysi iqtisodiyotida transport vositalarining ahamiyati va o'ri.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda transport yuk va yo'lovchilarni tashishi bilan mamlakat bo'ylab ham, jahon bo'ylab ham geografik mehnat taqsimotining chuqurlashuviga imkon yaratadi. U boshqa mamlakatlar bilan madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarni yuksalishida muhim ro'l o'ynaydi. Transport turlari odatda qanday yuk tashishiga, qancha yuk ko'tarishda, harakt tezligiga ko'ra guruhlansa, asosan katta hajmga ega bo'lgan transport vositalari ekologiya nisbatan katta ta'sir ko'rsatadi

### **Foydalanilgan Adabiyotlar.**

1. "Ўзбекистон Миллий Энциклопедяси" Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2000.
2. Usmonqulov Tolmas. " O'zbekiston Respublikasi transport geografiyasi ". Guliston–2015.
3. O‘ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI «O‘QITUVCHI» NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT — 2017
4. <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/avtomobil-transporti-infratuzilmasini-rivojlantirish-boyicha-topshiriqlar-berildi.html>
5. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va madaniyatning o'ri. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.